BILISH JARAYONLARI HAQIDA PSIXOLOGIK QARASHLAR

Oripov A.S., GulDU o‘qituvchisi

Annotasiya: ushbu tezisda buyuk mutafakkirlarning bilish jarayonlari haqida psixologik qarashlari bayon qilingan. Mutafakkirlarning qarashlarida har bir o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim berishda o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtirib mashg’ulotlar davomida ko‘proq ko‘rgazmalilikka e’tibor berish kerakligini uqtirilgan.

Kalit so‘zlar ilmiy bilimlar, kishi ruhiyati, qobiliyatiga mos, toqatni toq qilish, o‘tar-o‘tmas, sezgi qo‘zg‘atuvchi, yoqimli, zararsiz, dardli, halokatli, to‘rt sezgini his etuvchi.

Annotation: this article describes the psychological views of great thinkers about cognitive processes. In the views of thinkers, each teacher argued that when giving students knowledge, it is necessary to pay attention to more exhibitionism during classes, keeping students interested in their science.

Keywords: scientific knowledge, the psyche of a person, suitable for his abilities, the ability to make tolerance odd, impenetrable, sensory excitatory, pleasant, harmless, painful, destructive, the feeling of four senses.

Hozirgi sharoitda har tomonlama rivojlangan yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarishda umumta’lim maktablarining ham oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Umumta’lim maktablari jamiyatning faqat buguni emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan rivojini ham ro‘yobga chiqarish uchun hissa qo‘shadi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishga, ko‘p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega edilar. O‘rta Osiyoni markazida joylashgan O‘zbekiston Sharqning eng qadimiy, madaniy uchoqlaridan biri bo‘lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo‘shgan.

Xorazmlik olim al Xorazmiy nomi «algoritm» degan termin orqali, Evropada Alfrachanus nomi bilan mashhur bo‘lgan olim Ahmad al Farg‘oniy «Astronomiya asoslari» asari bilan bizgacha etib keldi. Abu Rayhon Beruniy ijdodida «Tana va Rux» ga oid hodisalar talqin qilindi. U odamlar o‘z tabiati jihatidan bir-biridan farq qilishini, bu farq uning mijozi, fe’l atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo‘lishini ta’kidladi. U inson hayotini biologik va irsiy omillar bilan bog‘laydi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Farobiy insonning ruhiy jarayonlari bilan fiziologik jarayonlari orasidagi bog‘liqlik, dunyoni bilish haqidagi ta’limoti bilan shuhrat qozondi. U axloqiy sifatlar tug‘ma bo‘lmay, balki mashqlar, ko‘nikma va malakalar, odatlar natijasi deb uqtiradi. Bu erda irodaning ahamiyati o‘lkanligini, uning yordamida kishi o‘zida hissiy va ma’naviy ehtiyojlarni ongli ravishda tanlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi deydi.

Psixologiya fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan sharq allomalaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad-al Beruniydir. A. R.Beruniy o‘z asarlarida ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga chaqiradi. Beruniyning fikricha o‘quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik ularga qiziqarliroq bilim berishga ko‘proq ko‘rgazmalilikka e’tibor berishga ah amiyat qaratish kerakligini ta’kidlaydi.

Abu Rayxon Beruniy kuzatish metodidan foydalanib tadqiqotlar olib borgan va kuzatish natijasini amaliyotda sinab ko‘rib, fanlarning haqiqatdan ham ustuvor

turishini ta’kidlaydi. Abu Rayxon Beruniy ta’lim berish kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo‘lishiga e’tibor beradi va shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Hadeb bir narsani o‘qiy berish zerikarli bo‘ladi va toqatni toq qiladi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi va tomosha qilgisi keladi. “Har bir yangi narsa rohat bag‘ishlaydi” - deb behuda aytilmagan”.

Abu Rayxon Beruniy shaxslar hayotida uchraydigan yomonlik va yaxshilikni qiyosiy solishtiradi va yomonlikni qoralab yaxshilikni ulug‘laydi. Uning fikricha, yomonlikning shaxobchalari ko‘p bo‘lib ular g‘azabli ilmsizlikdan kelib chiqadi.

Farobiyning ta’limoti Ibn Sino qarshilarining shakllanishiga kuchli ta’sir qiladi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi asab va asab yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida fikr yuritadi. U bola tarbiyasiga alohida e’tibor berdi va jismoniy tarbiya sog‘lom va tetik insonni shakllantirishning muhim omili ekanini, bolaning tug‘ilgandan boshlab, bolalikdan o‘smirlikka o‘tish davrida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni tavsiya etdi.

Ibn Sino atrof-muhit va organizm orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olib, har bir a’zo uchun maxsus mashqlar majmuasini tuzdi.

Axmad Yassaviyning mehr-sahovatli bo‘lish haqidagi qarashlari, Imom al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosabatlar, Baxovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyoqarashning shakllanishi, A.Navoiy faoliyatida ilmiy ta’lim – tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida ahamiyatlidir. Ular ijodida aynan bolalarda ruhiy jarayonlarning paydo bo‘lishi yoki shakllanib borishi haqida batafsil fikr yuritilmagan bo‘lsa ham ularning shaxs xalovati haqidagi fikrlari bolalarda ruhiy jarayon va xususiyatlarni shakllanishi uchun imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, agar o‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan hurmat va ishonch bilan munosabatda bo‘lsa, uning har bir so‘zi va harakati ta’sirli bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, bu hol ularning o‘zaro hamjihatliligi va birgalikda harakat qilishi uchun to‘sqinlik qiladi va muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Ijobiy munosabatlar psixologik bog‘lanishning samaradorligiga kuchli ta’sir etadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida paydo bo‘lgan sog‘lom va oshkora bahslashuv ijobiy tomonga o‘z natijasini berishi mumkin. O‘quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so‘zlashishni bilish lozim. So‘zlashishni, muloqot olib borishni doimo o‘rganib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimova Z.M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020.

2. Bandurka A.M., Druz V.A. Etnopsixologiya .-SPb.: Piter. 2000.

3.Botirov B.M. Etnopsixologiya.-T.: Fan va tehnologiya.2012.160 b.

4.Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.